**Nazorat savollari:**

1. «Standartlashtirish, metrologiya va sifatni boshqarish» fanini o‘rganishning tabiiy zarurligi.
2. «Metrologiya»ning fan sifatida shakllanib borish jarayoni qanday kechgan?
3. .Qanday ko‘hna va qad Ma'lumki, 1993 yilning 28 dekabrida Prezidentimiz tomonidan ketma-ket uchta, ya'ni- "Standartlashtirish to‘g‘risda", Metrologiya to‘g‘risda" va "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish" Qonunlari imzolangan edi. Bu qonunlarning hayotga imiy o‘lchash birliklarini bilasiz?
4. Fanning rivojlanishida o‘ziga xos hissa qo‘shgan olimlardan kimlarni bilasiz?
5. «Metrologiya to‘g‘risida» respublika qonunining asosiy ahamiyati nimalardan iborat?
6. Metrologik xizmat bilan metrologik ta'minotning qanday o‘zaro farqli tomonlari mavjud?
7. Metrologik ta'minotning tashkil etuvchi asoslarini so‘zlab bering.
8. Nima uchun metrologik ta'minotning ilmiy asosi metrologiyadan iborat deyiladi?
9. «Standartlashtirish, metrologiya va sifatni boshqarish» faoliyati bo‘yicha qanday xalqaro nufuzdagi tashkilotlarni bilasiz?
10. O‘zbekiston respublikasi MDH davlatlari ichida nechanchi bo‘lib ISOning a'zosi bo‘lgan?
11. Aynan atrofingizda mavjud turgan kattaliklarni sanab bering va ularni guruhlang.
12. Kattalikning sifat va miqdor tavsiflari nima asosida izohlanadi?
13. SI birliklar tizimi haqida so‘zlab bering.
14. O‘lchash birliklariga qo‘shimchalar deganda nimani tushunasiz?
15. O‘lchash birliklarini yozishda nimalarga e'tibor berish lozim?
16. O‘lchashga ta'rif keltiring va uni izohlab bering.
17. O‘lchash ob'ektlariga misollar keltiring.
18. O‘lchashlarning qanday turlari bor. Ularga misollar keltiring.
19. O‘lchash usullariga izoh bering.
20. O‘lchov va o‘lchash asboblarining farqi qanday?
21. O‘lchashning sifati nima?
22. O‘lchashlarning sifat mezonlari nima uchun xizmat qiladi?
23. Nima uchun o‘lchashlarda xatoliklar mavjud bo‘ladi?
24. O‘lchash xatoliklari qanday ma'noga ko‘ra tabaqalanadi?
25. O‘lchash xatoligining tashkil etuvchilari deganda nimani tushunasiz?
26. Muntazam xatoliklarni kamaytirishda qanday usullardan foydalanamiz?
27. Nima sababdan tasodifiy xatoliklarni faqat baholanadi?
28. Taqsimot qonuni deganda nimalarni tushunasiz?

29. Ehtimoliy baholanishdan maqsad nima?
30.O‘lchash natijasi tavsiya etilayotganda qanday ifodalanadi?
31.O‘lchash asbobining aniqlik klassi deganda nimani tushunasiz?
32. Nechta aniqlik klassi mavjud?
33.O‘lchash asbobining metrologik tavsifi nimani tushuntirishi mumkin?
34. O‘lchash asbobining metrologik va texnikaviy tavsiflarining orasidagi tafovut haqida so‘zlab bering.
35.O‘lchash asboblarining qanday guruhlarini bilasiz?
36. Turli tizimda ishlaydigan analog o‘lchash asboblarining afzallik va kamchilik tomonlarini tushuntirib bering.
37. Elektr zanjiridagi tok kuchining qiymati 50 A. Uni o‘lchash uchun qanday asbobdan foydalanish mumkin?
38.O‘lchash asbobining sezgirligi deganda nimalarni tushunasiz?
39.O‘lchash asbobining sezgirligini oshirish uchun qaysi parametrlarga e'tibor berish lozim bo‘ladi?
40.O‘lchash asboblaridagi shartli belgilar nima uchun kerak?
41.Raqamli o‘lchash asbobida o‘lchash signalini qanday o‘zgartirishlar qilinadi?
42.Raqamli o‘lchash asbobi bilan analog o‘lchash asboblarini o‘zaro solishtirib, baholang.
43. O‘lchash o‘zgartkichlari nima?
44.O‘lchash o‘zgartkichlarining qanday turlarini bilasiz?
45.Birlamchi va oraliq o‘lchash o‘zgartkichlari haqida nimalarni bilasiz?
46.O‘z sohangizga tegishli, zamonaviy o‘lchash tizimlari haqida nimalarni bilasiz?
47. Sun'iy ong (intellekt) deganda nimani tushunasiz?
48. Mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish va avtomatik atamalariga tavsif bering va ularning o‘xshash, hamda tafovutli tomonlarini tushuntiring.nformatsion tarmoq nima?
49. Perspektiv istiqbol bo‘yicha zamonaviy o‘lchash tizimlarini qanday tasavur qilasiz?
50. O‘z kasbingiz doirasidagi standartlashtirishni qanday izohlay olasiz?
51. Standartlashtirishning o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalari qanday?
52. Milliy va mintaqaviy standartlashtirish nima?
53. O‘zaroalmashuvchanlik deganda nimalarni tushunasiz?
54 Me'yoriy hujjat atamasiga ta'rif keltiring.
56.Standartlashtirish davlat tizimi nima?
57. Standartlashtirish jarayonining bosqichlari.
58. Standartlashtirish davlat tizimidagi asos bo‘luvchi standartlarga misollar keltiring.
59. Standart toifasi deganda nimani tushunasiz?
60. Respublikamizdagi amal qiluvchi standart toifalarini sanab bering.
61. Nima sababdan standartlar o‘zgartiriladi.
62. Standartlarni ishlab chiqish nechta bosqichdan iborat.

63 Standart loyiasi bo‘yicha texnikaviy qo‘mitaning funksiyalari nimalardan iborat?
64. Standartlarni belgilash tartibi qanday?
65. Texnikaviy shartlarni yaratilishining qanday tafovutli tomonlarini bilasiz?
66.Standartlashtirish bo‘yicha davlat nazoratini tashkil etilishining sabablari nima?
67. Standartlashtirish bo‘yicha nazorat ob'ektlari deganda nimalarni tushunasiz?
68. Hujjatlarni ekspertiza qilish nima?
69. O‘zdavstandartning funksiyalari haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
70. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish bo‘yicha mutaxassislarni qaerda tayyorlanadi va malaka oshiriladi?
71.Sertifikatlashtirishning tarixini bilasizmi?
72. Sertifikat nima?
73. Respublikamizda sertifikatlashtirishning eng yuqori rivojlanish davri qaysi vaqtlarga to‘g‘ri keladi?
74. Sertifikatlashtirishda nechta tomon ishtirok etadi?
75. Respublikamizda nechta sertifikatlashtirish sxemasidan foydalaniladi? Boshqa davlatlarda-chi.
76.Ekspert-auditorlar kim?
77. Qanday sohalardagi ekspert-auditorlarni bilasiz?
78. Ekspert-auditorlarga nisbatan qanday talablar qo‘yiladi?
79. Sifat to‘garaklari ilk bora qaerda tashkil topgan?
80. Sifat to‘garaklaridan ko‘zda tutilgan maqsadlar nimalardan iborat?
81.Marketing, maxsulotning bozorgirligining o‘rganish, izlanish olib boorish.
82.Loyixalash va texnik talablarni ishlab chiqish.
83. Moddiy texnik ta'minot.
84.Texnologik jarayonni tayyorlash va ishlab chiqish
85.Maxsulotni ishlab chiqarish
86.Maxsulotni sinash va nazorat qilish
87.Maxsulotni qadoqlash (upakovka) va saqlash
88.Maxsulotni taqsimlash va sotish
89.Montaj va ekspluatatsiya qilish
90. Hizmat qilishda texnik yordam ko‘rsatish
91.Chiqindilarni qayta ishlash, utilizatsiya qilish
92.Sifat boshqaruvi nima?
93. Mahsulotning sifati va navi tushunchalarini izohlab bering.
94. SHtrixli kodlash deganda nimalarni tushunasiz?
95. Qanday maqsulotlarga nisbatan shtrixli kod qo‘llanishi kerak?
96. SHtrixli kodlashning qanday tizimlari mavjud.